

Eshittimki, **Chingiz-u Xorazmshoh**,
Adovatqa chun bo'ldilar kiynagoh....
Hamonoki **Chingiz** topib zafar,
Aning mulkini qildi zer-u zabar. [2;137]
Chu **Sa'di-yu, Frdaviy-u, Unsuriy**,
Sano-yu, Xoqoni-yu, Anvoriy
Taaddudda muhtoji tafsul erur,
Vale bo'lsa tafsil, tadvil erur. [2;456]

Yuqoridagi parcha dostonning so'nggi 89 bobidan olingan bo'lib, unda mumtoz adabiyotning eng zabardast siymolari ifodalanadi. Xuddi shu bobni o'qish davomida Hazrat Navoiyning ham ular safidan o'rin olganini anglash mumkin. Mazkur ikki bayt Sharq mumtoz adabiyotidan mukammal xabardor o'quvchiga g'oyat keng ma'lumotlar beradi.

Dostonda muallif Yusuf va Zulayho, Farhod va Shirin, Layli va Majnun, Sulaymon, Luqmon, Rustam, Jabroil(a.s.), Bahrom kabi tarixiy va afsonaviy adabiy qahramonlar nomi bilan aloqador talmehning nodir namunalarini yaratilgan.

„Saddi Iskandariy“ da qo'llangan talmeh san'ati namunolari, asarning badiiy salohiyatini oshirish va uning qiymatini ko'tarish uchun xizmat qilgan. Har bir talmeh zamirida muhim g'oya va fikr ifodalangan bo'lib, kitobxon uni asarni qunt bilan o'qish davomida tushunadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Quronov D. va boshqalar Adabiyotshunoslik lug'ati. Toshkent, „Akademnashr“ , 2010. – 397.
2. A.Navoiy. Saddi Iskandariy. Toshkent, G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991 .-830.
3. Xolliyeva G. Navoiy ijodiga bag'ishlangan ilk dissertatsiya. „O'zbek tili va adabiyoti“ , 2010, 3-son, 32-35.

LIRIK MATNNING ICHKI MUNOSABATLARI

SAIDOVA RAYXONOV (*BuxDU magistr talabasi*)

Hozirgi kunda o'zbek adabiyotida badiiy matnni tahlil qilish va o'rganishning yetakchi metodlaridan biri bu struktural- tahlil metodidir. Bu usul orqali hozirgacha bir qancha nasriy va lirik matnlarning belgi munosabatlari o'rganildi.

Adabiyotshunoslikda strukturalizm XX asrning o'rtalarida Fransiyada fan sifatida shakllandi. Keyinchalik qolgan G'arb mamlakatlariga tarqala boshladi. XX asrning 60 - yillarida Rossiyada professor Y.Lotman rahbarligida struktural markaz tashkil etilgan. Bu fanning asoschilari va rivojlanishi uchun hissa qo'shgan olimlar Klod Levi Stross, Rolan Bart tadqiqotlari va asarlari hozirgi kungacha dasturul-amal bo'lib kelmoqda. Bu fan o'zbek adabiyotiga XXI asrning boshlarida kirib kela boshladi. Strukturalizmning fan sifatida kirib kelishi, bu boradagi izlanishlarning, tadqiqotlarning boshlanishiga asos bo'ldi. Biz o'zbek adabiyotida strukturalizm tadqiqiga bag'ishlangan ishlarni «O'zbek tili va adabiyoti» jurnalida chop etilgan olimlarning maqolalaridan ham bilamiz. A.Rasulov strukturalizmga ixcham tarzda quyidagicha ta'rif beradi: "Badiiy asar o'ziga xos mikromir: san'atkor asar vositasida olam-olam fikrlarni bildiradi, g'oyalarni ifodalaydi. Biz borliqni qanday o'zlashtirsak, san'atkor matnini shunchalik sinchiklab o'rganamiz. Haqiqiy matn - sistema. Borliq tuzilishida, inson muchasi, a'zolarining joylashishida izchil tarkib, tartib bo'lganidek, badiiy asar matnida ham tartibli tarkib mavjud. Aniqroq aytsak, badiiy asar – betakror struktura,

tema. Bu sistemani o'qish, o'zlashtirish yo'rig'i, yo'sini, qoidasi strukturalizmdir. Strukturalizm qasadi adabiy matnning semiologiyasi – ma'nolar yo'nalishi, ko'p qavatligini anglashdir. Strukturalizm maqsad-mohiyatini yuzaga chiqarishda asardagi muhim ma'no nuqtalarini belgilab o'z jiddiy ahamiyat kasb etadi".

Badiiy matnlarni struktural tahlilida badiiy asar metodi muammosi hamisha muvaffaqiyatli o'rinlarda turadi. Metod badiiy asarni shakllantiruvchi omil sifatida qaraladi. Struktural tahlil jarayonida badiiy asar metodiga tayanish bosh masala hisoblanadi. Qoridagi unsurlar badiiy matnni struktur tahlil qilishda yetakchi hisoblanadi.

Struktura ham sodda qilib aytganda, yuksak ichki tartib tarkibidagi intizomdir. Uning tushunchasi bilan chambarchas bog'liq. Chunki struktura tizim qaror topishining shartlari va ichki shakli bo'lib, bu shakl mazkur sistema elementlari o'rtasidagi barqaror aloqalarning birligi sifatida yuzaga keladi. Sistemaning o'zi esa o'zaro munosabat va aloqada bo'luvchi va muayyan yaxlitlikni, birlikni tashkil etuvchi elementlar to'plamidir.

Rauf Parfi she'rlarini haqiqatdan betakror struktura, badiiy tizim desak bo'ladi. Chunki uning lirik matnlarida izchil tarkib va tartib mavjud. Rauf Parfi she'rlari majoziy asarlardan tiklangan badiiy tafakkurdan iborat bo'lib, ularda zamona tafakkuriga o'z xosligi, erk istagi, ozodlik ruhi, jamiyatdagi zulmga, adolatsizlikka, tengsizlik va adolatga qarshi isyon g'oyalari o'z aksini topgan. Jumladan, u bir she'rida quyidagidek yozadi:

Chiroq. Chiroq yonar bo'zarib,

Jim. Tinglangiz uning kuyini,

U bir qo'shiq aytar, do'stlarim,

Sahargacha aytar kuyinib.

Chiroq. Chiroq yonar bo'zarib,

Bu she'rda asosiy obraz - chiroq. Chiroq odatda, yorug'lik baxsh etadi, yolg'izlikka barham beradi, kishiga umid bag'ishlaydi. Rauf Parfi bu she'rda chiroqning yonarib yonishini, sahargacha nola qilayotgan, bo'zarib kuylayotgan qo'shiqchiga o'z xosligini ifodalaydi.

Chiroq yonar- sevimli orzu,

Chiroq yonar- so'nggi yo'q hasrat.

Turkistonim kabi yonar u,

Chiroq yonar- eng go'zal qismat,

Chiroq yonar- sevimli orzu

Chiroqning yonishi qorong'ulikda barham beradi, qorong'ulikda ko'rishning imkoniyati bo'lmagan hodisalarni, sof tuyg'ularni anglash imkonini beradi, qorong'ulikda chiroqning yonishi eng sevimli orzu ekanligini shoir juda chiroyli va aniq tarzda, izchil tartib asosida ifodalaydi va bir o'rindagina "Turkistonim kabi yonar leya o'zining maqsad - mohiyatini yuzaga chiqaradi. Ana shu o'rinda shoirning qorong'ulik obrazidagi belgilarining badiiy matndagi ifodasi o'z sirlarini namoyon qiladi:

Chiroqni tinglangiz, odamlar,

Qarshisida egib turing bosh.

Sizni kuylar u tongga qadar,

To navbatni olguncha quyosh.

Chiroqni tinglangiz, odamlar.

Shoirning maqsadi izchil tartibda ochila beradi. Ya'ni, u asosiy maqsadga erishish uchun yana chiroqdan foydalanadi. "sizga yorug'lik beruvchini tinglang va unga qo'shiling, u sizni tongda quyoshga olib chiqadi" deya ko'nglidagi fikrlar uchun

chiroqqa semantik ma'no yuklaydi. Chiroqdagi xos xususiyatlarning tartib bilan kelishi, unga yuklatilgan ma'noning tartib bilan joylashtirilishidan deyarli farqlanmaydi.

Rahimjon Rahmat aytganidek, Rauf Parfi so'zning uch asosiy sifatidan unumli foydalaniladi. So'z-ohang, mazmun va manzaraning mukammal uyg'unligi. Iste'dodli shoirlarning she'rlarida so'zning bu muhim sifatlari, bir qarasangiz, yakka holda, yana bir qarasangiz, birgalashib o'z jozibalari bilan ko'zni yashnatadi:

Insonlik fitrati uygonguncha to
Ich, haqning qonini yuho jomida.
Chorasiz Haqiqat, ul ilohiy nur,
Abad qolib ketmas vahshat domida!

Xudo odamni odam qilib yaratdi. Uning fitratiga insonlik urug'ini sepdi va shu yerda ishni yakunladi. Bundan buyog'i esa avvalo, ota-onaga, jamiyatga, va nihoyat, odamning o'ziga havola etildi. Ota ona, jamiyat va odamning sa'y harakatlari bilan odam Insonga aylanishi mumkin. Buni g'arbda ilmiy istiloh bilan individ va shaxs deb atashadi. Har qanday odam individ, lekin har qanday individ shaxs emas, deydi shoir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shoir she'rlaridagi ichki munosabatlar lirik matnlar yaxlitligini ta'minlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Islom Karimov. «Yuksak ma'naviyat - yengilmas kuch». T.. «Ma'naviyat». 2008. 139—140-betlar.
2. Parfi R. Saylanma. –Toshkent. Akademnashr. 2013.
3. Лотман Ю. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970
4. Fazliddin B. Rauf Parfi she'riyatining o'ziga xosligi. - O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, -2014. №4. B.27.
5. Fayzullayeva O. Rauf Parfi she'rlarida assotsiativ tafakkur ko'rinishlari. - O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, -2011. №1. B.99.
6. Xobekov M. Rolan Bart struktur adabiyotshunoslik. O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, -2013. №2. B.23.
7. Qahramonov Q. Adabiy tanqidda struktural metod talqini. – O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, -2009. №5 B.34.
8. Meliyev S. Strukturalizm va struktur tahlil haqida. - O'zbek tili va adabiyoti. –Toshkent, -2009. №2 B.12.

Ш. ХОЛМИРЗАЕВ ЭССЕЛАРИ ҲАҚИДА

ЗОЙИРОВА Г. Н. (БухДУ магистр талабаси)

Эссе – ёзувчи хотиралари, унинг ўй-кечинмалари, у ҳис қилган, унинг ақл-идрокини банд этган тасвирлар баёнидир. Бу жанрнинг адабиётимизга кириб келганига унча кўп вақт бўлгани йўқ. Ўзбек адабиётини насрнинг турли жанрлари билан бир қаторда эссе жанри билан ҳам бойитган ва бу борада ўз ўрнига эга бўлган ижодкор Шукур Холмирзаевдир. Ижодкор эссени "...инсон қисматининг маълум даври бўлагига нисбатан ўз муносабатини очиқ-ошкор билдириб туриш баробарида ўз кўнглида туғилган қандайдир ҳис-ҳаяжонини ҳам, ҳатто шахсий мулоҳазаларини ҳам бемалол ёзиш имконига эга" бўлган "ёрқин жанр, бундан ташқари, у агар таъбир жоиз бўлса, "размерсиз жанр", дея таърифлайди¹.

¹Ўзбекистон адабиёти ва санъати. Шукур Холмирзаев: Эссе – эркин ижод. 2003-йил, 16-сон